Zamonaviy o‘zbek she’riyatida rang-tus bildiruvchi sifatlar lingvopoetikasi

Nishonova Adiba Adhamjon qizi

Namangan davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Email: adibanishonova7@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy o’zbek she‘riyatida rang-tus bildiruvchi sifatlar lingvopoetikasi ko’rib chiqqan holda tahlil qilingan. Maqolada bugungi o’zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasining mohiyati xususida so’z boradi. O’zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar hamda qilingan ilmiy ishlar haqida fikr yuritiladi. Mazkur ilmiy maqolada bugungi o’zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tushunchasining mohiyati xususida so’z boradi. O’zbek va jahon tilshunosligida lingvopoetikaga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar hamda qilingan ilmiy ishlar va zamonaviy o’zbek she’riyatida rang-tus bildiruvchi sifatlar haqida fikr yuritiladi. [1]*

Kalit so’zlar: *lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetikaning o’rganish ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari, lingvopoetikaga oid tadqiqotlar tarixi va tahlil turlari ko’rsatilgan, kognitiv tilshunoslik, sifatlarni lingvopoetik tahlili.*

Kirish

Adabiyot so‘z san’ati ekanligi qadim zamonlardan beri ma’lum. Badiiy adabiyotsing asosi unsuri esa, shubhasiz, tildir. Badiiy asarning san’at darajasiga ko’tarila olishi uning lisoniy tuzilishi va asar muallifining badiiy mahoratiga ko‘p jihatdab bog‘liq. Har qanday badiiy asarga esa uning lisoniy tuzilishi, undagi so‘zlarning nechog‘liq to‘g‘ri ishlatilganiga qarab baho beriladi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda tilning bir necha vazifalari qayd etilgan. Masalan, Avrorin tilning kommunikativ(aloqa quroli vositasi), ekspressiv(fikrlarni ifodalash), konstruktiv(fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ(ijtimoiy tajriba va bilimlarni to‘plash) kabi vazifalarni sanab o‘tadi[1].

Tilshunoslikka oid tadqiqotlarda tilnin “ekspressiv vazifasi” atamasi bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi” kabi atama ham keng qo‘llaniladi. Badiiy asar tilining aynan “estetik vazifasi” ni o‘rganuvchi soha esa lingvopoetikadir.

O‘zbek tilshunoslik ilmida badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o‘rganishga doir olib borilgan tadqiqotlar juda ko‘p. Masalan, bir qator ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o‘rganilgan, ulug‘ mutafakkirning badiiy uslubga xos lisoniy vositalarini ochib berishga harakat qilingan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilarning asarlari lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan, lekin bu borada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar salmoqli. Biz o‘z ishimizda yoritayotgan sifat so‘z turkumi leksik-semantik, uslubiy, lingvokulturologik, psixolingvistik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, uning lingvopoetik jihati mukammal yoritilagan.

Badiiy adabiyotda belgi bildiruvchi so‘zlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, she’riy asarlarni sifatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu jumladan, rang bildiruvchi so‘zlar ham badiiy asar mazmunini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Rang- tus bildiruvchi so‘zlar nafaqat ma’lum bir predmetning belgisini, balki qahramonning ichki kechinmalari, his-tuyg’ularini ham ochib beradi. Masalan qora rangi qadimdam g‘am-qayg‘u, kulfat, baxtsizlik kabi semalarga ega. Tilimizda bu rang bilan bog‘liq turg‘un birliklar, iboralar, urf-odatlar mavjud. Masalan, *qora qismat, baxti qaro, qora kun, ko‘ngli qora, yuzi qora bo‘lmoq.* Badiiy adabiyotda uning aks etishini Iqbol Mirzoning quyidagi she’ri orqali ko‘rishimiz mumkin:

Yo jilg‘asiz o‘zanidan adashgan.

Yo yulduzsiz nogoh yerlarga tushgan.

Yoki qora qismatning bir qulisiz?

Kulsangiz ham bunchalar qayg‘ulisiz [2;87]

Ko‘rinib turibdiki shoirning ushbu qahramoni qayg‘uga botgan. Ushbu misradagi qayg‘u, qora qismat, adashgan so‘zlari o‘zaro poetic ohangdorlik hosil qilmoqda. Shu so‘zlari o‘qiboq kitobxon bu she’r baxt haqida emaligini anglab yetadi. Yoki shoir ijodidan yana bir misolda ham buni ko‘rishimiz mumkin:

Dag‘al, o‘jar o‘smirni mayin etgan savdolar,

Bozorda baholarni tayin etgan savdolar,

Qorako‘z gavharidan shoda munchoqlar tizib,

Yurakni pufak qilib o‘yin etgan savdolar.

Nog‘ora qoq, nog‘ora, lunjing to‘la zog‘ora,

Eshon, xo‘ja va qora o‘yin bilan ovora. **[2]**

Bundan tashqari qora rangi xalqimiz madaniy hayoti bilan ham uzviy bog‘liq. Qadimda qora kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Shuning uchun ham Turk xoqonligi hukmdorlari o‘z ismlari oldidan qora so‘zi qo‘shib ishlatishgan. Malan: Tabg’ach Qora Buvraxon. Shuningdek Abu Muslim qo‘zg‘oloni davrida qo‘zg‘olonchilar ruhini ko‘tarish uchun qora libos kiyilgan. Adabiyotshunos olim I.Haqqul Ergash Jumanbulbul kuylagan “Dalli” dostonidagi bir baytda shunga ishora borligiga asoslanib, “Qorabosh tug‘ (qora rangli bayroq) – boshini o‘limga tikkan mard-jasur jangchilar bayrog‘ini bildirib, bu o‘rinda eroniylarning bayrog‘iga qarshi tiklangan turkiy tug‘dir”, degan xulosani bayon etgan.[3]

Bugungi kunda qora ko‘plab xalqlar uchun og‘ir judolikni ifodalovchi motam ramzidir. Buning sababi odatda o‘lim mangu uyqu yoki qorong‘ulik demakdir. Shunga qaramay qora doim ham motam ramzi bo‘lmagan. Faransiya qirollari birinchi bo‘lib qizil rangdan motam ramzi sifatida foydalanishgan va bu keyinchalik qirmizi rangga o‘zgargan. Lekin qora rangi ifodalagan motam ma’nosini ko‘k leksemasi ham berishi mumkin: *Sevgimiz o‘ldimi? – libosingiz ko‘k, Ko‘nglingiz begulxan, ko‘zingiz becho‘g‘.*

Ibtidoiy odamlar ham har qanday salbiy narsa qora rangi orqali ifoda etilganiga qaramasdan, bu rang ijobiy xususiyatlarga ham ega edi. Masalan, Afrikaning qurg‘oq hududlari qabilalarida qora yomg‘ir bulutlaring rangi sifatida namoyon bo‘ladi va ayniqsa qora sochli odamlar chiroyli hisoblanadi.

Bundan tashqari, tilimizda qora so‘zi bilan bog‘liq bir nechta maqollar ham mavjud: *Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi. Xalqdan ajralganning yuzi qora bo‘lar, Yurtdan ajralganning so‘zi ado bo‘lar. Asli qora oqarmas, asli buzuq tuzalmas. Yuzning qoraligi uyat emas, yuzi qoralik uyat. Oq degan – olqish, qora degan – qarg’ish va boshqalar.*

Xulosa

Lingvopoetika tilshunoslikning eng ahamiyatga molik sohalaridan biridir. Chunki badiiy asarda qo‘llangan so‘zlarning lisoniy xususiyatlarini bilmay turib, yozuvchi kitobxonga aynan nima demoqchi ekanligini, badiiy asarning asl mazmun-mohiyatini anglab bo‘lmaydi. Xuddi shu o‘rinda sifatlar, ayniqsa, rang-tus bildiruvhi so‘zlar tilimizning salmoqli qismini tashkil etar ekan, bu boradagi izlanishlar mavhumligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati. – T:O‘zbekiston, 1962.
2. Iqbol Mirzo, Tanlangan she’rlar. – T:G‘ofur G‘ulom, 2002.
3. Ibrohim Haqqul, Qora rang – muborak rang. – T:Yulduzcha, 1989.